

Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari¹

2026- yil yanvar-iyul


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026- yil yanvar-iyul oyida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **17 477,4** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **117,5** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **2 731,5** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: 2025- yil yanvar-iyul oyida xizmatlar hajmi **14 116,9** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **117,0** % ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan (**5 683,8** ming so'm) 2026- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 423,7** ming so'mga yoki **18,6** % ga o'sib, **7 107,5** ming so'mni tashkil etgan.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik biznes tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **12 514,3** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **71,6** % ini, jumladan, **45,4** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

¹2025- yil yanvar-iyul oylari hajmi va 2026- yil yanvar-iyul oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2026- yil yanvar-iyul

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati ²	17 477,4	100,0	117,5
Jizzax shahri	4 747,3	27,2	120,9
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	283,7	1,6	116,6
Baxmal	956,3	5,5	130,4
G'allaorol	827,3	4,7	121,3
Sharof Rashidov	1 458,9	8,3	122,3
Do'stlik	319,9	1,8	115,8
Zomin	928,9	5,3	121,1
Zarbdor	292,5	1,7	117,8
Mirzacho'l	229,2	1,3	118,1
Zafarobod	166,0	0,9	118,7
Paxtakor	441,6	2,5	127,3
Forish	447,3	2,6	118,6
Yangiobod	81,3	0,5	118,4

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

Jizzax shahrining yuqori ulushi (**27,5 %**) uning viloyat markazi bilan izohlanadi, u Jizzaxning eng yirik shahridir. Jizzax shahrida davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Jizzax rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

²Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida yashash va ovqatlanish xizmatlari **27,3 %** ga (o'sishiga hissassi **2,1** band), ta'lim sohasidagi xizmatlar **5,5 %** ga (o'sishiga hissassi **0,1** band), moliyaviy xizmatlar **42,2 %** ga (o'sishiga hissassi **8,1** band), transport xizmatlari **16,3 %** ga (o'sishiga hissassi **1,7** band), savdo xizmatlari **10,4 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissassi **3,1** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-iyul)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2025-y.	2026-y.	
Xizmatlar – jami	14 116,9	17 477,4	116,1
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	651,2	779,1	110,4
moliyaviy xizmatlar	2 142,5	3 049,2	142,2
transport xizmatlari	1 510,2	1 840,2	116,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 440,1	1 743,8	117,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 584,6	4 355,6	109,9
savdo xizmatlari	3 955,5	4 658,4	110,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	253,1	314,9	122,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	332,8	361,8	105,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	251,9	307,0	112,5
ijara xizmatlari	135,8	163,3	112,7
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	254,1	284,3	107,7
shaxsiy xizmatlar	292,5	354,2	110,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	136,7	186,1	111,7
boshqa xizmatlar	616,0	823,3	123,2


Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2026- yil yanvar-iyul oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari **26,7 %**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **24,9 %**, moliyaviy xizmatlar **17,4 %**, transport xizmatlari **10,5 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,5 %**, va ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **2,1 %** ulushini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlari **22,9 %**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,3 %**, moliyaviy xizmatlar **18,2 %**, transport xizmatlari **11,4 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,6 %** va ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **2,6** foiz ulushni tashkil etgan.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi 2026-yil yanvar-iyul, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **51,4** foizni tashkil etdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan esa **194,4** foizni tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyul oyida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urta xizmatlarida** kamayish kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan hajmi **17,0** mlrd so'mga kamaydi yoki **81,6** foizni tashkil etdi.

Sug'urta xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **avtotransport xizmatlari (117,2%)**, **pochta va kur'erlik xizmatlari (129,4 %)** **xizmatlarida** yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Jizzaxda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **95,3 %** ni tashkil etdi. 2026- yilning yanvar-iyul oyida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **121,2 %** ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot(ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu– xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lagigicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan



xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlaribo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Manzil:130100,Jizzax shahri,
To'qimachilar ko'chasi, 7
Pochta: info@jizzaxstat.uz
Tel.: 72-221-51-27

